XALQ DEPUTATLARI BO’STONLIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-5-017-10-136-K/24 Bo’stonliq tumani

Bo‘stonliq tumanining 2025-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son Qonuni, Budjet kodeksining 27 va 99-moddalari, xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Toshkent viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qaroriga asosan Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/01-04/449-sonli, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 14-noyabrdagi 02361-sonli va 27-dekabrdagi 02414-sonli murojaatlari, Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyaning 2024-yil 26-dekabrdagi 03-01-DKB/45-sonli bayonini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Bo‘stonliq tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son Qonuni, xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2024-yil 27-dagi “Toshkent viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda Qoror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qarorga muvofiq, Bo‘stonliq tumani mahalliy budjetining 2025-yil uchun daromadlar rejasi – **118 831 943 ming so‘m** va xarajatlari – **118 831 943 ming so‘m** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek, tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **553 017,0 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari va ajratma me’yorlari 1-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, hamda

2025-yilda tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 785 085 ming so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdori 4-ilovaga;

xalq deputatlari Bo‘stonliq tumani Kengashiga mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlash tavsiya qilinsin:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 5-ilovaga;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (E. Turobov), Davlat soliq inspeksiyasi tuman bo‘limi (Z. Zokirov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsinlar.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, shuningdek oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanilishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriluvchi tashkilotlarning kommunal xizmatlardan ajratilgan limitlar doirasida foydalanishi, kommunal xizmatlardan qarzdorlik vujudga kelgan taqdirda mazkur qarzdorliklar budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan bartaraf qilinishi, qarzdorliklar o‘z vaqtida bartaraf etilmagan hollarda budjet tashkilotlari rahbarlariga va mas’ul xodimlariga qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli choralar ko’rilishi ta’minlansin.

9. Tuman hokimligi axborot xizmati (Y. Abdullayev), “Bo‘stonliq ovozi” gazetasi (A. Kulbayev) mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va tuman gazetasida yoritilishini ta’minlasinlar.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Bo‘stonliq tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (S. Madjitov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



AXMEDOV JO‘RABEK ILXOMOVICH

Xalq deputatlari Bo’stonliq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-017-10-136-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Bo‘stonliq tumani mahalliy budjeti daromadlarining asosiy prognoz KO‘RSATKICHLARI VA AJRATMA ME’YORLARI

T/r.	Daromad turlari	Summa, *ming so‘m*	Ajratmalar me’yori, *foizda*	
			Yirik soliq to‘lovchilar (MRI)	Viloyat soliq boshqarmasi (DSB)
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0	0	0
2.	Korxonalar aylanmasidan soliq	15 821 000	100	
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	13 370 700	10	10
4.	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 043 000	100	
	Aksiz solig‘i, jami	1 662 000	0	8
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	0	0	0
	pivo	0	0	0
5.	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	1 662 000	0	8
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	945 500	0	5
7.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	16 545 000	100	
8.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	4 394 900	0	10
9.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	36 946 000	100	
10.	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 469 000	100	100
11.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	12 831 843	100	100
12.	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	572 000	0	100
13.	Davlat boji	3 748 000	100	

14.	Yig‘imlar	0	0	0
15.	Jarimalar	7 688 000	100	
16.	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	795 000	100	
Jami:		**118 831 943**		

Xalq deputatlari Bo’stonliq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-017-10-136-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Bo‘stonliq tumani mahalliy budjetidan hududiy mablag‘larni taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan MIQDORI

T/r.	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori, *ming so‘m*
Xarajatlar miqdori, jami		**118 831 943**
1.	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	28 509 054
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*3 310 285*
2.	Bolalar musiqa va san’at maktablari	2 893 092
3.	Madaniyat bo‘limi	1 536 730
4.	Axborot-kutubxona markazi	855 569
5.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*170 338*
6.	Sport maktabi	4 593 303
7.	Obodonlashtirish boshqarmasi	25 550 541
8.	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1 850 131
9.	Xayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazi	461 993
10.	Yoshlar ishlari agentligi	6 587 881
11.	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 585 869
12.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 094 398
13.	Suv yetkazib berish xizmati	2 014 386
14.	Tuman hokimligi	40 128 658
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*273 084*

	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	*23 100*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*22 713 169*
	Zahira jamg‘armasi	*1 785 085*
	Xalq deputatlari Tuman kengashi kotibiyati	252 947
	Mahallalar uyushmasi "Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	2 987 544

Xalq deputatlari Bo’stonliq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-017-10-136-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yilda tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam MIQDORI

T/r.	**Hudud bo‘yicha jami**	**2025-yil uchun,** *ming so‘mda*
1.	Bo‘stonliq tumani	553 017

Xalq deputatlari Bo’stonliq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-017-10-136-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida
MIQDORI

ming. so‘mda

T/r	Hudud nomi	2025 yil uchun						
		Chakana savdo			Maishiy xizmat	Boshqa faoliyat turlari	Yuk tashish faoliyati	
		oziq-ovqat va nooziq ovqat tovarlari sotish	dexqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi maxsulotlari sotish	gazeta jurnallar va kitob maxsulotlarini sotish			3 tonnagacha yuk tashish avtomobillari uchun	3 tonnadan ortiq yuk tashish avtomobillari uchun
1.	Bo‘stonliq tumani	600,00	200,00	200,00	200,00	200,00	250,00	350,00

Xalq deputatlari Bo’stonliq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-017-10-136-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan KOEFFITSIYENTLAR

(Qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r.	Hudud nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
3	Bo‘stonliq tumani	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20

Xalq deputatlari Bo’stonliq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-017-10-136-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan KOEFFITSIYENTLAR*

T/r	Ҳудуд номи	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(syement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezak toshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepisa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1.	Bo‘stonliq tumani	1,30	1,30	1,30	1,30	1,30	1,30	1,30

*Изоҳ: *- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (syement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffisiyent belgilashga haqli.*